

2-TOM, 1-SON  
IBN SINO SHE'RIYATIDA MAY BILAN BOG'LIQ SHE'RLAR POETIKASI

*Beginqulova Shohsanam*

*Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasida o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

Ibn Sinoning "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) va "اوج زحل" (Zuhul[Saturn]ning eng yuqori nuqtasi), "أرجوزة في الطب" (tibbiy urjuza) kabi asarlaridagi she'rlar alohida o'rin tutadi. Dastavval, bunday asarlarning yaratilishi Ibn Sino uchun tasodif emas edi: mazkur sohadagi izlanishlari uning asosiy ijod faoliyatining bir qismi, uni qiziqtirgan muammolar doirasining mantiqiy yechimi bo'lgan desak, mubolag'a qilmaymiz. Uning inson tana tuzilishini mukammal bilishi she'rlarida tibbiy yo'riqnomalarni batafsil bayon etilishiga asos bo'lgan.

**Kalit so'zlar:** devon, ruboiy, she'riyat, g'oya, o'ziga xoslik, she'riy uslub, mas'uliyat, Sharq merosi.

Ibn Sinoning ilmiy merosini shartli ravishda 4 qismga, ya'ni falsafiy, tabiiy, adabiy va tibbiy sohalarga bo'lish mumkin, olim shularning har birida chuqur iz qoldirgan. Lekin Ibn Sino asarlarining miqdoriy nisbatiga nazar solsak, olimning qiziqish va e'tibori ko'proq falsafa va tibga qaratilganini ko'ramiz. Garchi uni «Avitsenna» sifatida G'arbda mashhur qilgan uning tibbiy merosi, xususan, «Tib qonunlari» bo'lsa-da, «Shayx-ar-Rais» nomi, eng avval, uning buyuk faylasufligiga ishoradir.

Ma'lumki, Ibn Sinoning ilmiy faoliyati boshlangunga qadar arab tilshunosligining barcha yo'nalishlari batamom shakllanib bo'lgan edi. Halil ibn Ahmad davridan to Ibn Jinniy davrigacha arab grammatikasi, leksikologiyasi va tilning umumiy nazariyasiga oid eng yirik asarlar yaratilgan, shunga monand arab adabiyotida aruz vaznining barcha janrlari shakllanib, ularning yorqin namunalari satrlarga tushirilib ulgurgan edi. Ana shu boy ilmiy meros qatorida Ibn Sinoning "ديوان ابن سينا" (Ibn Sino devoni) va "اوج زحل" (Zuhul[Saturn]ning eng yuqori nuqtasi), "أرجوزة في الطب" (tibbiy urjuza) kabi asarlaridagi she'rlar alohida o'rin tutadi. Dastavval, bunday asarlarning yaratilishi Ibn Sino uchun tasodif emas edi: mazkur sohadagi izlanishlari uning asosiy ijod faoliyatining bir qismi, uni qiziqtirgan muammolar doirasining mantiqiy yechimi bo'lgan desak, mubolag'a qilmaymiz. Uning inson tana tuzilishini mukammal bilishi she'rlarida tibbiy yo'riqnomalarni batafsil bayon etilishiga asos bo'lgan. "Tib qonunlari"ning tegishli boblarini ushbu she'riy asarlar bilan qiyoslaganda, ularning orasida deyarli ma'noviy bir xillikni uchratish mumkin.



## 2-TOM, 1-SON

Boshqa bir tarafdin, Ibn Sino musiqashunoslik sohasining ham bilimdoni bo'lgani bois, o'z she'rlarini insonlarga tinglash, yodda saqlash uchun osonroq usulda yaratgan edi. Banihoyat, olimning fors, xorazm, turkiy, yunon, arab kabi bir qancha tillarni bilishi o'z she'rlarini yanada mukammal yozishi uchun zamin bo'lganligini ham aytib o'tish lozim.

Ibn Sinoning nafaqat tibbiyot va falsafaga balki, she'riyatga salmoqli hissa qo'shdi, asarlar bitdi. Shoirning ichki kechinmalari uning she'rlaridao'z aksini topadi. She'rlar qaysi mavzuda bo'lmasin ijodkorning o'y-xayollari ularga yo'g'rilgan bo'ladi. Ibn Sino she'rlarida ham nafaqat shoir balki, buyuk tabibning g'oyalari chuqur o'rin olgan. Ibn Sino she'rlari o'zining soddaligi va samimiyligi bilangina emas, tibbiy pandnomalikka asoslanganligi bilan ham diqqatga sazovor. Ibn sino she'riyatini o'rganar ekanmiz, uning turli janrlarga boyligi, aniq maqsadlar ko'zlanganligi, so'zamollik ila yozilganligiga guvoh bo'lamiz.

Ibn Sino o'zidan oldin yaratilgan Sharq adabiyoti, uning an'analari va yutuqlaridan yaxshigina xabardor edi. U doston, qasida, g'azal, ruboiy, fardlar yozgan, arabiyda ham, forsiyda ham she'riy ijod qilgan. Ibn Sino ijodidagi ajoyib xususiyatlardan yana biri shuki, u asarlarida o'z davrining juda ko'p ilg'or g'oyalarini ko'rinarli aks ettira oldi, shunga ko'ra uning she'rlarida ishq-muhabbat, odob-axloq, ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya mavzulari keng yoritildi.

Mumtoz Sharq she'riyatida asl tarovat, teran ma'nolarni to'g'ri idrok qilish uchun Tasavvuf ta'limotidan xabardorlik, uning istilohlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Tasavvuf - insonning ilohiyotga munosabatini va umuman, yashamoqning ma'no-maqsadini o'ziga xos tarzda talqin etuvchi ma'naviy, diniy, falsafiy birlikdagi ta'limot tizimidir. Komil inson bo'lib yetishishga intilish va shu maqsadda uning ta'limotida belgilangan yo'llarni bosib o'tish zarurati tasavvufning asosiy muddaosi hisoblanadi. Shunga ko'ra tasavvufning eng ko'p qo'llanadigan istilohlari ishq, may, jom, ko'ngil, ma'shuqa, dunyo, raqib, oshiq va boshqalar.

O'zida boy ma'naviy merosni jamlagan Ibn sino she'riyatida ham tasavvufiy istilohlarni uchratishimiz mumkin. Masalan, may bilan bog'liq bo'lgan ruboiylar. May tasavvufda ishq, sof ishq, ya'ni Oллоhga bo'lgan muhabbatni ifodalaydi. Tasavvufga ko'ra agar oshiq ma'shuqasining ishqida may ichib mast bo'lsa bu- ishqning haqiqiyiligiga ishora. Har bir istilohning o'z ma'nosi borki, shu sababli mumtoz she'riyatda bunga alohida e'tibor qaratganlar. Lekin Ibn Sino she'riyatida bunga salgina boshqacharoq yondashiladi.

Shu o'rinda Ibn sino she'riyatidan misol keltirib, tahlil qilib o'tamiz:

الراح في هذه البلايا راحتي  
لله فاجعل راحتي في راحتي



## 2-TOM, 1-SON

بنت الكروم شفاء مجروح الهوى  
عالج بها يا ابن الكرام جراحتى

*Rohatijon erur may mushkilot ichra,  
Rohatim qo'y Ollohim, shu kaftim ichra.  
Tok qizi-may shifodir ishqdan yaradorlarga,  
Ey karamli zot o'g'li jarohatimni emla.*

*“Bunday qiyinchiliklarda may jonning rohatidir, Ollohim, mening rohatimni kaftim ichiga qo'y. Tok qizi(may) sevgidan yaralanganlarga shifobo'ladi. Ey karamli kishining o'g'li jarohatimni davolagin”.*

Bu ruboiysida Ibn Sino so'z o'yini qilyapti. May -الراح, راحت – kaft hamda rohat ma'nosida, كرام – karomatli va bog'bon, ابن الكرام - bog'bon o'g'li, بنت الكروم - tok qizi, ya'ni maydir. Ushbu ruboiy “ruboiyi xosa” a-a-b-a shaklida qofiyalangan. Ruboiy badiiy tasvir vositalari orqali yanada ohangdorlik kasb etadi. Birinchi va ikkinchi misralardagi راحتى so'zining takror qo'llanishi takrir san'atini hosil qilgan bo'lsa, oxirgi misradagi جراحتى so'zi ularga ohangdosh bo'lib keladi. Bulardan tashqari راحتى so'zi bir misrada ikki marta ikkita ma'noda qo'llanilib, tajnis san'atini hosil qiladi. Mayni tok qiziga o'xshatilib tashbeh san'ati ham mohirona qo'llangan. Ruboiyda yuqorida aytib o'tganimizdek ishq azoblarida may davo bo'lmoqda. Ibn Sino bu masalaga ikkinchi tomondan, ya'ni tabiblik nuqtai nazaridan ham yondashadi.

Shu jihatdan Ibn Sino “Qonun” asarida ham, kichik risola va qasidalarida ham mayning zararli hamda dorivorlik xususiyatlari haqida so'z yuritadi, bu haqida baytlar keltirib o'tadi:

*May dushmani mastu do'stbo hushyorast, Andak taryoku, besh zahri morast.*

*Dar bisyorash mazarrat andak nest, Dar andaki u manfaat bisyorast.*

*(May mastning dushmaniyu, hushyorning do'stidir. Uning ozi taryoq-zahar davosiyu, ko'pi ilon zaharidir. Ko'pidan zarar oz emas, ozida manfaat ham kattadir).* Ushbu to'rtlikda birinchi, ikkinchi, to'rtinchi misralardagi ast so'zi takrir san'atini, misralardagi antonim so'zlar: dushman-do'st, andak-bisyor tazod san'atini yuzaga keltirgan. To'rtlik a-a-b-a shaklida qofiyalangan, forsiyda yozilgan. Sharq she'riyati an'alaridan farqli ravishda shoir ushbu she'rlarida nafaqat badiiy, balki ilmiy tomondan ham bizga ko'p ma'lumotlarni beradi. Ya'ni tibbiyot, falsafa, mantiq fanlarini she'riy usullar orqali insoniyatga yetkazib beradi. Ko'rib o'tganimizdek Ibn sino she'rlari orasiga chuqur fanni, kerakli bilimlarni jo etgan.

Ibn Sino may haqidagi she'rlarida ichkilik johillar(ya'ni haddan tashqari ko'p may ichuvchi kimsalar)ga qanday ta'sir etishini, ichilgandan keyin ularda yuz beradigan





## 2-TOM, 1-SON

voqealarni ham tasvirlaydi. Tabib sifatida u ko'p may ichishni qoralaydi, uning salbiy oqibatlarini bayon etadi va bu yo'lga kirib qolganlarning ancha-muncha ahmoqliklari ko'p may ichganlarida yuzaga chiqishini ta'kidlaydi.

Ibn Sino mashhur "Urjuza fit-tib" tibbiyotga oid urjuzalari(u tibbiy yo'l yo'riqlarni, ko'rsatmalarni she'riy yo'l bilan bayon etgan, ushbu to'rtliklarning "urjuzalar" deb atalishiga sabab rajaz bahrida yozilganligidir)da ham may va shunga o'xshash ichimliklar haqida yozadi:

*Doim ichib, mast yurishdan bo'lg'in yiroq,*

*Ichmakka ko'p qasd aylasang oyda bir boq.*

*Manfaat bor may ichilsa, ahyon-ahyon,*

*Gar ko'paysa anda ziyon turli-tuman. (A.Irisov tarjimasi)*

May bilan bog'liq she'rlarning ko'pchiligi to'rtlik yoki ruboiy shaklida bo'lib, ular asosan *a-a-b-a*, *a-a-b-b*, *a-b-a-v* tarzida qofiyalangan. Shakl va mazmun jihatidan ham ancha puxta va mukammal. May bilan bog'liq she'rlarda mayni qanday holatlarda iste'mol qilish, qancha miqdorda iste'mol qilish, uning foyda va ziyonlari haqida maslahatlar berib o'tiladi. Ibn Sino tabib sifatida she'rlari orqali tibbiy maslahatlarini insonlarga isbotlab berdi. Bulardan tashqari Ibn Sino Mumtoz sharq she'riyati an'alariga muvofiq may insonning Ollohga bo'lgan muhabbatini ifodalovchi vosita ekanligiga she'rlarida ishora qilib o'tgan. Ibn Sino ijodida may bilan bog'liq she'rlar asosan urjuzalarida va alohida ruboiy va to'rtliklar shaklida uchraydi lekin ularning aniq soni hali aniqlanmagan.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Ibn Sino she'riyati, undagi she'rlar badiiy asar, ilmiy qo'llanma sifatida o'sha zamonlardan to bugungi kungacha o'z qimmatini saqlab kelayotgan muhim manbalardan sanaladi. She'rlar qaysi mavzuda bo'lmasin, ularda keltirilgan tasviriy vositalar, san'atlar, ohangdorlik va tushunarli tilda yozilganligi bilan ajralib turadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibn Sino ta'limoti fan taraqqiyotida VII xalqaro Ibn Sino o'qishlari. Ibn Sino ruboiylarining o'zbekcha tarjimalari. - Buxoro, 2013.
2. Abu Ali Ibn Sino. Avchi Zuhul. – Dushanbe, Irfon. 1980.
3. Abu Ali Ibn Sino. Lirika (tarjimonlar: Sh.Shomuhamedov, J.Kamol, A.Irisov).
4. Саломов Ф. Тил ва таржима Т. 1966
5. A.Irisov Abu Ali Ibn Sino - T.: Fan, 1980.
6. An-Naim arabcha-o'zbekcha lug'at, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. – T. 2003

